

## O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM TIZIMINING RAQAMLI FUNDAMENTI – HEMIS AXBOROT TIZIMI

D.R. Nikadambayeva, O'zbekiston Jurnalistika va Ommaviy Kommunikatsiyalar Universiteti

**Izoh:** Mazkur tahliliy maqolada O'zbekistondagi raqamlashuv muhitida oily ta'lismizini virtual olamga moslashtirayotgan HEMIS axborot tizimining kelajakdagi samarali faoliyatiga bog'liq takliflar to'g'risida so'z boradi..

**Kalit so'zlar:** Alemira, Classter, EduSec, Moodle, Wisenet, Jupiter, Classtime, Rise Vision, Canvas, Eskadenia, HEMIS, axborot tizimi, ta'limgagi raqamlashuv, oily ta'lismi, Yevropa Ittifoqi, Turkiy davlatlar tashkiloti

### Kirish

Raqamlashuv jarayonlari kundan-kunga avj olib borayotgan muhitda, ayniqsa ta'lismi sohasidagi raqamlashuv masalalarida K.Shenonning "Bir kalit bilan barcha eshiklarni ochib bo'lmaydi" degan iborasini inobatga olgan holda, raqamli "qurol"larni tadbiq etilishi va qo'llanilishida hech bir nozik masalani e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Haqiqatdan ham raqamlashtirish - kamroq yo'qotish yoki sarf bilan katta samaradorlikka erishish mumkin bo'lgan yagona yo'l. Shu sababli yurtimiz ta'lismi tizimida ham jarayonlar raqamlashtirilmoxda, "Kundalik", "Aqilli universitet", "Finger print", "HEMIS" va boshqa shunga o'hshash raqamli vositalar bosqichma-boshqich tadbiq qilinmoqda. Biroq bu kabi axborot tizimi va raqamli vositalarni ta'lismi sohasiga integratsiyasida, asosiy e'tibor markazida talabalar ta'lumi bo'lgan, chuqur tahliliy, amaliy va eksperimental yondashuv mavjudmi?

### Metodologiya

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.10.2019 yildagi PF-5847-soni "Oliy ta'lismi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni (O. R. Farmon-PF 5847-soni), 24.12.2021 yildagi PQ-60-soni "Davlat oliy ta'lismi muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorining 6-bandni (Qaror-PQ -60-soni, 6-bandni), 24.12.2021 yildagi PQ-61-soni "Davlat oliy ta'lismi muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining 7-bandni (Qaror-PQ 61-soni, 7-bandni), 22.08.2022-yildagi PQ-357-soni "2022-2023-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorning 2-ilovalari (Qaror-PQ 357-soni, 2-ilova)da mamlakatimiz oliy ta'lismi tizimidagi raqamlashuv masalalarining ustuvor vazifalari belgilab berilgan bo'lib, ularga ko'ra tizim raqamlashuvidan asosiy e'tibor – oliy ta'lismi muassasalaridagi ma'muriy, o'quv, ilmiy, moliyaviy jarayonlarni hukumat tomonidan elektron boshqarish imkonini beruvchi "Oliy ta'lismi" axborot tizimini joriy etishga qaratilgan.

Mazkur huquqiy hujjalarda sohani raqamlashuviga mas'ul etib Oliy va o'rta maxsus ta'lismi (hozirgi Oliy ta'lismi, fan va innovatsiyalar vazirligi) hamda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish (hozirgi Raqamli texnologiyalar vazirligi) vazirliklari tayinlandi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020-yildagi PF-6079 sonli "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash

NIKADAMBAEVA Durdon  
Ruhullaevna, Senior Lecturer at  
Department of Public Relations  
in Journalism and Mass  
Communications University of  
Uzbekistan

НИКАДАМБАЕВА Дурдана  
Рухуллаевна, старший препо-  
даватель кафедры связей с об-  
щественностью Универси-  
тета журналистики и массовых  
коммуникаций Узбекистана

va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni (Farmon-PF 6079-sonli)da Respublikaning xorijiy mamlakatlardagi diplomatik vakolatxonalari o‘zlariga biriktirilgan hududlar va tarmoqlarga ilg‘or texnologiyalar va IT yechimlarni transfer qilishda har tomonlama amaliy yordam ko‘rsatishlari lozimligi 23-ilovada belgilandi. Unga ko‘ra, “Aqlli universitet”, “Raqamli ta’lim” texnologiyalari hamda ta’limda imtihon tizimini rivojlantirish masalalari O‘zbekistonning Estoniya va Finlandiyadagi diplomatik vakil K.Sultanov zimmasiga yuklatildi.

### Natijalar

Hozirda yurtimizdagи олий та’лим муассасалари фаoliyatini virtual olamga transformatsiya qilinishida HEMIS (Higher Education Management Information System) axborot tizimi ishga tushirildi va tizimini boshqaruvi uchun ko‘plab funksiyalar kiritildi. OTM qatnashchilarini tizimga moslashuvini ta’minaldashdagi xizmatlari bilan, tizim milliy konsultanti O‘tkir Raxmatullayevich Hamdamov mazkur tizim ta’sischilarining ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biri. U tizimga kiritilinayotgan kafedra mudiri, o‘qituvchi, talaba va OTning boshqa ishtirokchilar funksiyasiga kiruvchi – shartnoma va diplomlarni shakllantirish, stipendiya belgilash, kursdan-kursga o‘tkazish, fanlarni tanlash, qayta o‘qish, bandlik, ishga joylashtirish, qarzdorlik, o‘qishni ko‘chirish, fan mavzulari va resurslarini shakllantirish, test imtihonini yaratish, nazoratlarni baholash, davomad, ilmiy faoliyat, ilmiy loyiham, OTM reytingini tizimda shakllantirish to‘g‘risidagi ma’lumotlardan [https://www.youtube.com/@HEMIS\\_UZB/about](https://www.youtube.com/@HEMIS_UZB/about) da doimiy ravishta xabardor etib boradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.12.2021 yildagi PQ-61-sonli “Davlat олий та’лим муассасаларига молиавији mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorining 7-bandи (Qaror-PQ 61-son, 7-band)ga ko‘ra “Axborot tizimiga уланиш idoraviy bo‘ysunuvidan qat’i nazar, barcha davlat олий та’лим муассасалари uchun majburiy hisoblanadi” deya belgilab qo‘yilganiga ko‘ra, hozirda yurtimizdagи OTM faoliyati bosqichma-bosqich, “Хоть медленно но верно” tizimga transformatsiyalanmoqda.


### Muhokama

Jahonda raqamli texnologiyalar iqtisodiyotning barcha jabhalarida qo‘llanilmoqda, shu jumladan ta’limda ham. Yurtimizda raqamlashtirish ishlari zamon talabidan kelib chiqib amalga oshirilayotganini inobatga oladigan bo‘lsak, to‘g‘ri bu – HEMIS axborot tizimiga ko‘p qulayliklar kiritilindi, biroq mazkur tizim iste’molchi va qatnashchilar fikrlari o‘rganilganda, tizimning kelajakdagи samarali faoliyati uchun ba’zi takliflar yuzaga keldi.


Eng asosiy e’tibor, mazkur raqamli axborot tizimini shakllantirib borishda faqatgina hukumat boshqaruvi qulayliklari uchungina emas tizimning boshqa ishtirokchilarini ham qiziqish va qulayliklarini inobatga olinishida bu masalada ilg‘or bo‘lgan xorij mamlakatlari tajribalariga ham e’tibor qaratilish masalasidir. Agar, jahon tajribasiga tayanadigan bo‘lsak, mamlakatda OTM tanlov qilish imkonи bo‘lgan turli boshqaruv axborot tizimlari maydoninig shakllanganligi, mazkur platformalararo o‘zarо raqobatni ta’minalab, ulardagи kamchiliklarni tezroq bartaraf etilishiga sabab bo‘ladi. Mana masalan, Buyuk Britaniyani oladigan bo‘lsak, undagi OTM yagona bir dasturiy ta’mindan foydalanishga majbur emas. Ular, o‘z takliflari bilan muntazir bo‘layotgan jahondagi top ta’lim dasturiy ta’mintlari xizmatlaridan o‘z ixtiyor va tanlovlari ko‘ra foydalanish

huquqiga ega. Mamlakatda Alemira (Shvedtsariya, Schaffhausen), Classter (Gretsiya, Kavala), EduSec (Hindiston, Gujarat), Wisenet (Avstraliya, Melburn), Jupiter (AQSh, Pensilvaniya), Classtime (AQSh, Santa Barbara), Rise Vision (AQSh, Vichita), Canvas (AQSh, YuTA), Eskadenia (Iordaniya, Omman)ga o‘xshash 50 dan ziyyotlar mavjud.

Jahon mamlakatlari OTMga o‘z xizmatlarini taklif qilayotgan yuqorida sanab o‘tilgan mashxur ta’lim dasturiy ta’minotlarini kuzatadigan bo‘lsak ulardagi xizmatlarda barcha tomonlarning xohishlarini qondiruvchi raqamli qulayliklar maksimal darajada aks etganini ko‘rishimiz mumkin. Mana masalan, Malayziyaning (BAC) Brikfilds Osiyo kolleji (2014 dan), Omanning (IP) Poliglot Instituti (2015 dan), Zimbabvening (ESB) Elita Go’zallik Maktabi (2016 dan), Yegipetning Ayn-Shams Universiteti (2016 dan), AQShning Vasko Kariyr kolleji (2016 dan), Tibbiyot fanlari Atlant Universiteti (2018 dan), Turkiyaning Bashakshehir Islom Akademiyasi (2017 dan), Serra-Leonenning Sharqiy Politexnika Institut (EPI) (2019 dan) lari foydalanuvchi, Hindistoning “Rudram Softech Pvt Ltd” kompaniyasi taqdim etayotgan EduSec (<https://www.edusec.org/blog>) ta’lim platformasini oladigan bo‘lsak, unda ko‘pdan-ko‘q qulayliklar mavjud. Xattoki, tizimda ota-onalar uchun ham sahifa ochish imkonii mavjud. Mazkur sahfalar orqali ular OT va undagi jarayonlardan xabardor bo‘lish, farzandlarining sport, ma’naviy-ma’rifiy va akademik yo‘nalishlardagi monitoringini olib borish, muassasa raxbariyati, pedagoglar va to‘lov masalalariga mas’ul vakillar bilan elektron aloqa o‘tnatish, kontrakt to‘lovi qoldiqlaridan xabardor bo‘lish, to‘lov masalalari bo‘yicha ota-onalarni o‘zaro muloqotida qatnashish, turli majlislaridan xabardor bo‘lish va shunga o‘xshash ko‘plab raqamli qulayliklarga egadirlar (1,2-tasvirlar).



1-tasvir



2-tasvir

# TA'LIM

The screenshot shows the 'Allocated Details' page for student MANU GUPTA (Student) - MBA20150. It displays room information, fees, and room history. The room is allocated in BLOCK 1, ROOM F1, with a capacity of 2 persons in a single room. Fees include HOSTEL SECURITY DEPOSIT (paid), HOSTEL ROOM RENT (paid), and a total amount of ₹12,000.00 (paid). Room history shows the room was booked from 01-01-2020 to 04-12-2020.

3-tasvir

The screenshot shows the 'Quick Access to Hostel Analytics & Reports' section. It states that the system generates reports related to hostel occupancy, room allotments, fees collection, user fees collection, payment information, hostel student attendance, defaulter students, in campus hostel records, campus-based hostel allotments, and other hostel insights.

IN CAMPUS HOSTEL (GIRLS HOSTEL)								
Block	Room Location	Rooms	Room Alias	Capacity	Total Allotment	Name	Joining Date	Leave Date
BLOCK 1	GROUND FLOOR	ROOM-1	GFR1	2	1	Abdullah Rashedat Mominova (Student)	01-01-2018	30-06-2018
		ROOM-2	GFR2	2	2	Ashat kake Ajid (Student)	01-02-2018	30-06-2018
		ROOM-3	GFR3	2	1	BAWARDHAN RAJENDRA JARAO (Student)	01-01-2020	31-03-2020
		ROOM-4	GFSR4	1	1	Abdulhaqueem H Gonyika (Employee)	01-02-2020	30-06-2020
		ROOM-5	GFSR5	1	1	SALURAM GAMEESH TAVIE (Student)	01-01-2020	30-06-2020
FIRST FLOOR	ROOM-F1	FFR1	3	3	JUEE ANAND SHRKE (Student)	01-02-2020	30-06-2020	
	ROOM-F2	FFR2	2	1	BANKAR DARDHAN SANDEEP (Student)	01-03-2020	31-07-2020	
	ROOM-F3	FFR3	2	2	RACHITA RAJKUMAR NAIR (Student)	01-02-2020	04-12-2020	
					MANOJ BHAGWANLAL GUPTA (Student)	01-04-2020	04-12-2020	
					AMAN SHASHIKANT JOBAPUTRA (Student)	01-03-2020	31-10-2020	
				SHRIKH GANESH PENGODA (Student)	01-02-2020	30-12-2020		
				MOKASHI JAYANT SATCHIDANAND (Student)	01-03-2020	04-12-2020		


4-tasvir

Undagi Hostel management xizmati esa talabalar turar joyini boshqarishda xonalarni qaysilari band, qaysilari bo'sh ekanidan, turli qulaylik va sig'imdag'i xonalarning turli narxlaridan xabardor bo'lish imkonini beradi (3,4-tasvirlar).

The screenshot shows the 'Allocated Details' page for student MANU GUPTA (Student) - MBA20150. It displays room information, fees, and room history. The room is allocated in BLOCK 1, ROOM F1, with a capacity of 2 persons in a single room. Fees include HOSTEL SECURITY DEPOSIT (paid), HOSTEL ROOM RENT (paid), and a total amount of ₹12,000.00 (paid). Room history shows the room was booked from 01-01-2020 to 04-12-2020.


5-tasvir

Bu platformadagi, talabalar nazorat ishlarni yaratish va ularni tekshirish uchun kiritilgan raqamli vositalar professor-o'qituvchilarni, bajarilgan ishlarni soatlab tekshirib, vaqtini isrof qilishlariga yo'l qo'yaydi. Eng asosiysi esa, nazorat ishlari vaqtida misli ko'rinnmas qog'oz sarfini oldini oladi. Umumiy yakuniy tahlilni ham jadval yoki sxemalatda chiqarib beradi (5,6-tasvir)




6-tasvir

Agar talabalar davomadi masalasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, o‘qituvchi va talabalarni vaqtini olmaydigan, avtomatlashgan davomad tizimi esa (P=Present) Mavjud, (L=Late) Kechikdi, (A=Absanse) Ishtirok etmadi deya aniq belgilangan uch turdag'i ikonkalar bilan aks etib, o‘qituvchilarni turli mavhum tushunchalarda bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaydi (7-tasvir).



7-tasvir


Kalendar planda nafaqat dars jadvalini kuzatish, balki akadem tadbir, bayram va tug‘ilgan kunlar, imtihon, uy vazifalari va shunga o‘xshash masalalrdan xabardor bo‘lish imkonи bor (8-tasvir).



8-tasvir


# ТА'ЛИМ

Tashkilotlar uchun ishonchli dasturiy ta'minotlarni tavsiya etuvchi GetAppning ro'yxatidan o'rın olgan Classter (<https://www.classter.com>) axborot tizimida esa OTMga qatnashda transport va elektron kutubxona masalalariga ham raqamli yechim topilgan (9-tasvir).




9-tasvir

Moodle (<https://moodle.com/>) platformasida fan resurslari, hattoki video darslarni joylashtirish (10-tasvir), nazorat ishlarini turli shakkarda (11 -tasvirlar) olish uchun imkoniyat mavjud.



10-tasvir



11-tasvir

### Xulosa

Ko‘plab olimlarning “Muvaffaqiyatli universitetlar avtonom, akadem erkin va tadqiqotlarga safarbar qilingan bo‘lishlari kerak” degan ta’kidlarini inobatga oladigan bo‘lsak, demak OTM virtual olamdagি faoliyatlarini shakllantirishlari uchun ularga turli axborot tizimlari orasidan o‘z komfortlariga ko‘ra tanlov qilish imkoniyati bo‘lgan muhitni shakllanishiga imkon yaratish lozim. Sog’lom raqobat bor joyda rivojlanish bo‘lishi hammamizga ma’lum. Shu sababdan ham OTM faoliyatini virtual transformatsiyasiga ko‘maklashuvchi turli tuman dasturiy ta’mintarni ko‘payishi mazkur sohadagi muammo va kamchiliklarni tezroq bartaraf bo‘lishiga ko‘maklashadi.

Bu maqoladagi keltirilgan takliflarning ko‘pida Yevropa mamlakatlari oily ta’lim tizimida ishlab kelayotgan axborot tizimlaridan misol qilinganining sababi shuki, hozirda milliy ta’lim tizimimizga ko‘plab Kembrij, Vestminister universitetlari yoki Finlandiyaning ta’lim tizimini andoza tariqasida tadbiq qilinayotgani boisidandir. Biroq, bu masalaga boshqa tarafdan yondoshadigan bo‘lsak, nima sababdan (Osiyo mamlakatlari demayman maylin, loaqlar) Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo mamlakatlар orasida Yevropa Ittifoqi singari ittifoqqa a’zo mamlakatlар oily ta’lim muassasalarini ishtirokchilarini raqamli ta’lim bo‘yicha tajriba va yangiliklar almashinuvi ta’minlab, ularni digital kompetentligini oshirishga komaklashuvchi “Digital education 2021-2027” loyihasidek dasturlarni ishga tushirishga jiddiy e’tibor berilmaydi? Lekin, Türk Devletleri Teşkilati (turkicstates.org) saytidagi ma’lumotlardan kelib chiqadigan bo‘lsak bu narsalarni ba’ri allaqachon rejaga kiritilingan. Ahir, Yevropa ittifoqi ham qachonlardir shu kabi loyihalarni mentaliteti, dini va boshqa o‘zigagina hos omillarni inobatga olgan holda noldan boshlagan, asosiysi hech kimni “know-how”sini na’muna yoki andoza qilib olmay. Biz ham bu masalada haqiqatdan ham samara ko‘rishimiz uchun Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining sobiq vaziri A.X.Toshqulovni MFaktorga bergen intervyusida ta’kidlaganidek, bu tizimlarni “o‘zbekchallashtirib” olinishiga yo‘l qo‘yib bermasdan, virtual dasturiy ta’mintarni yaratuvchi mutahassislar va ta’limda uzoq tajribaga ega bo‘lgan olimlarni bu masaladagi faolligini oshirishirib, loaqlar Turkiy davlarlar tashkilotiga a’zo davlatlar aro “Digital education of TDT”ni yo‘lga qo‘yishimiz lozim.

### Adabiyotlar ro’yxati

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.12.2021dagi PQ-61-sonli "Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Qarorining 7-bandi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020dagi PF-6079-sonli "Raqamli O‘zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi 6079-sonli Qarori

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.22.2022dagi PQ-357-sonli "2022-2023-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Qarorining 2-ilovasi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.12.2021dagi PQ-61-sonli "Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Qarorining 6-bandi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.24.2021dagi PF-60-sonli "Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minalash bo‘yicha qo‘sishcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi Farmonining 6-bandi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.10.2019dagi PF-5847-sonli "O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi Farmoni

<https://www.edusec.org/blog>

<https://www.classter.com>

<https://moodle.com>

ЦИФРОВОЙ ФУНДАМЕНТ СИСТЕМЫ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ  
УЗБЕКИСТАНА — ИНФОРМАЦИОННАЯ СИСТЕМА HEMIS

Д.Р. Никадамбаева, Университет журналистики и массовых коммуникаций  
Узбекистана

**Аннотация:** В статье проанализированы предложения, связанные с будущей эффективной работой информационной системы HEMIS, которая адаптирует систему высшего образования к виртуальной сфере в условиях цифровизации Узбекистана.

**Ключевые слова:** Alemira, Classter, EduSec, Moodle, Wisenet, Jupiter, Classtime, Rise Vision, Canvas, Eskadenia, HEMIS, информационная система, цифровизация образования, высшее образования, Евро Союз, Организация тюркских государств.

DIGITAL FOUNDATION OF THE SYSTEM OF HIGHER EDUCATION IN  
UZBEKISTAN - INFORMATION SYSTEM HEMIS

D.R. Nikadambaeva, Journalism and Mass Communications University of Uzbekistan

**Abstract:** This analytical article deals with proposals related to the future effective operation of the HEMIS information system, which adapts the higher education system to the virtual sphere in digital process of Uzbekistan.

**Keywords:** Alemira, Classter, EduSec, Moodle, Wisenet, Jupiter, Classtime, Rise Vision, Canvas, Eskadenia, HEMIS, information system, digitalization of education, higher education, European Union, Organization of Turkic States.